

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

MAKTABGA TAYYORLOV GURUHI YOSHDAGI IMKONIYATI CHEKLANGAN (TIFLO) BOLALARNING JISMONIY TARBIYASI.

10.53885/edinres.2022.87.50.062

O'zDJTSU o'qituvchisi Murodov Farxod Maxmudovich

O'zDJTSU Sportni boshqarish va turizm fakulteti

talabasi Kamardinova Shaxlo Baxtiyor qizi

e-mail: kamardinovashaxlo@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan maktabgacha ta'lim tashkilotidagi tarbiyalanuvchilar uchun jismoniy tarbiya darslarining samaradorligi. Tadqiqotimiz davomida ishlab chiqilgan mashqlar majmuasi asosida bolalarning jismoniy holatining yaxshilanishi. Ota onalar bilan olib borilgan anketa so'rovnomalari hamda tadqiqotimiz davomida imkoniyati cheklangan bolalarning harakat deprivatsiyasiga ta'sir qiluvchi sabablarining tahlili haqida.

Аннотация: В данной статье рассматривается эффективность занятий по физическому воспитанию учащихся с ограниченными возможностями здоровья в дошкольных учреждениях. Улучшение физического состояния детей на основе комплекса упражнений, разработанного в ходе нашего исследования. Об анкетировании родителей и анализе факторов, влияющих на депривацию движения детей с ограниченными возможностями здоровья в ходе нашего исследования.

Abstract: This article discusses the effectiveness of physical education classes for students in preschools with disabilities. Improving children's physical condition based on a set of exercises developed during our study. About the questionnaires conducted with parents and the analysis of the factors influencing the deprivation of movement of children with disabilities during our study.

Kalit so'zlar: Tayyorlov guruh, jismoniy tarbiya darsi, jismoniy mashqlar, maxsus mashqlar, individual harakatlar, koordinatsion harakatlar, jismoniy faollik, muvozanat, optimallashtirish, harakat rejimi, simbiotik munosabat.

Ключевые слова: Подготовительная группа, занятие физической культурой, упражнение, специальные упражнения, индивидуальные движения, координация движений, двигательная активность, баланс, оптимизация, способ действия, симбиотическая установка.

Keywords: Preparatory group, physical education class, exercise, special exercises, individual movements, coordination movements, physical activity, balance, optimization, mode of action, symbiotic attitude.

Dolzarbliligi. Imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiyasi maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ta'lim jarayonining muhim yo'nalishlaridan biridir, chunki maktabga tayyorlov guruhi yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash, ularning ijtimoiy moslashuvi va keyingi davr bilan bog'liq bo'lgan juda muhim davrdir.

2021- yilgi rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, yurtimizda 7 753 ta MTTlar mavjud bo'lib, ulardan 148 tasi ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim muassasalaridir. So'nggi yil ichida 12 mingdan ortiq bolajonlar ichidan faqatgina 3 ming 400 nafari alohida ehtiyojga ega bolalar ekanligi aniqlangan.

Ko'rib chiqilayotgan muammoning dolzarbligi imkoniyati cheklangan bolalarning jismoniy faolligining yetishmasligi bilan belgilanadi. Har xil salomatlik darajalari, birga keladigan kasalliklar, saqlanib qolgan funktsiyalarning mavjudligi, individual harakat buzilishlari harakat faoliyatining pasayishiga ta'sir qiladi. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun maktabgacha ta'lim tashkilotida jismoniy rivojlanish darslari tashkil etilishi kerakligiga qaramasdan, ko'plab insonlar imkoniyati cheklangan bolalarning jismoniy faolligi yetarli emasligini ta'kidlaydilar.

Lekin, chet el ma'lumotlariga asoslanadigan bo'lsak, M.A. Runova (2000) Bolalar bog'chasi va oiladagi katta maktabgacha yoshdagi bolalarning mustaqil motorli faoliyatining yetarli emasligiga e'tibor qaratdi; L.V. Shapkova (2004) haftada jismoniy tarbiya darslarining yetarli emasligi va qo'shimcha mashqlar terapiyasi mashg'ulotlarini kiritish haqida; S.O. Filippova (2002) darsdan tashqari vaqtdan yetarlicha foydalanmaslik to'g'risida; B.B. Egorov (2008) ota-onalar va o'qituvchilarning bolalarning jismoniy tarbiyasiga qiziqishi yo'qligi haqida. Shu bilan birga, harakat faoliyatining yetishmovchiligi imkoniyati cheklangan bolaning to'liq hajmda harakatga bo'lgan ehtiyojini cheklash bilan bog'liq ilmiy ishlar olib boranganlar.


Ishni yaratish asosida maktabgacha ta'lim tizimida quyidagi mualliflik dasturlari o'rganildi: Usmonxodjayev T.S., Nuriddinova M.M. (Maktabgacha jismoniy tarbiya va harakatli o'yinlar), Mahkamjonov K.M. (MTTlar jismoniy tarbiyasi), Rasulova M.Sh. (Bolalarni maktabga psixologik tayorlash), Sobirova V., Ayubova M., Shomahmudova R. (Maxsus yonalishdagi dasturlar), Maktabgacha

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel va ilk yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari (standart), "Ilk qadam" o'quv dasturidagi tavsiyalarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.


Ushbu holatlar bizni imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarning harakat rejimini optimallashtirish bo'yicha yangi yondashuvlarni izlashga undaydi, ular motivatsion va emotsional sohada harakat qiladi, bolalarda tabiiy harakat faoliyatiga kuchli qiziqish uyg'otadi va harakat yetishmovchiligini kamaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

KTMMTTdagi jismoniy tarbiya yo'riqchilari, o'qituvchilar tomonidan harakat yetishmovchiligining sababi bolalarning harakat faoliyatining individual ko'rinishlarini yetarlicha baholamaslikda namoyon bo'ladi.

Tadqiqotimizda bolalarning individual jismoniy faolligi va jismoniy mashqlar davomida turli xil jismoniy vositalardan foydalanishni hisobga olish maqsadida jismoniy tarbiya yo'riqchilari va o'qituvchilarning (n=19) anketa so'rovnomasi natijalari shuni ko'rsatadiki Umumiy dars davomida foydalanadigan jismoniy tarbiya vositalarini 5 ballik tizimda belgilaydigan bo'lsak anketa so'rovnoma natijasida to'plar - o'rtacha ball - 5 balldan 4,8 ballni; ikkinchi o'rinni arqon bilan sakrash - 4,1 ball; o'qituvchilar kamdan-kam hollarda halqadan foydalanadilar - 2,8 ball; keglilar - 2,6 ball va kubiklar - 2,0 ballni tashkil qildi (1-rasm).



Ota-onalar tomonidan harakat faoliyatining yetishishmasligi sabablarini o'rganish biz o'tkazgan, ota-onalar o'rtasidagi munosabatlarni baholash metodologiyasi "Tarbiya turi" (mualliflar A. Ya. Varga, V. V. Stolin.,1991 yil.) anketa so'rovnomasida 110 ta ota-onalar ishtirok etdi va tadqiqot natijalarini 2-rasmda ko'rish mumkin.



2-rasm - O'rganilayotgan bolalar kontingenti oilasida tarbiya turlari Diagramma tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik oilalarning 41,9% pozitsiyasi "qabul qilish - rad etish", ya'ni. ota-ona va bola o'rtasidagi qutbli munosabatlarni tashkil qiladi. Oilalarning 13,3 foizi bolaning ishlari va rejalari bilan qiziqadi.

Ular bolalariga hamma narsada yordam berishga harakat qiladilar. Ota-onalar bolaning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini yuqori baholaydilar, ular bilan faxrlanish tuyg'usini his qiladilar. Bolaning

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel
tashabbusi va mustaqilligini rag'batlantirish, ongli ravishda bolaning tarbiyasi va rivojlanishi bilan shug'ullanadilar.

18 foizi esa bola bilan simbiotik munosabatlarga intiladi. Ular uning barcha ehtiyojlarini qondirishga, uni hayotning qiyinchiliklari va qiyinchiliklaridan himoya qilishga harakat qilishadi. Oilalarning 15,7 foizi avtoritar tarbiya uslubiga ega. Ota-onalar bolaning nuqtai nazarini baham ko'rishga qodir emaslar, ular hamma narsada unga o'z irodasini yuklashga harakat qilishadi. Oilalarning 10,9 foizida esa, imkoniyati cheklangan bolalarni shaxsiy va ijtimoiy qobiliyatsiz deb hisoblash, uni haqiqiy yoshidan kichikroq go'dak sifatida ko'rsatish istagi ustunlik qiladi.

Biz tadqiqotimiz davomida maktabgacha yoshdagi imkoniyati cheklangan bolalar uchun quyidagi mashqlar majmuasini ishlab chiqqanmiz bu mashqlar "JTSNvaU" kafedrasida ish rejasiga muvofiq "Ohista qadam" tabaqalashtirilgan dasturidan joy olgan.

1-jadval

Imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus mashqlar (yurish, yugurish, sakrash va qo'llar uchun)	
Gimnastika tayoqchalari ustidan yurish (Rels)	Masofani taqsimlash, farqlash va kuz bilan chamalashni rivojlantiruvchi mashq
Darboz yurish mashqi	muvozanatni va harakat aniqligini rivojlantiradi
Labirint mashqi	fazoda yunalishni mo'ljalga olib bilish harakatlarni muvofiqlashtirishni rivojlantiradi
Halqa bo'ylab yugurish	mayda matorikalarni rivojlantiradi (matorika bu qo'l matorikasi narsalarni ushlab odamlarning qo'lyozmasi bilan bog'liq bo'lgan juda kichik xarakatlarga qadar)
Maksimonal yugurish (5 m)	muvozanat saqlash va mayda matorikalarni rivojlantiradi
Bir oyoqda sakrash	harakat izchilligi oyoq mushaklar kuchini rivojlantiradi
Qurbaqacha sakrash	koordinatsion harakatlar hamda harakatlar simmetriyasini rivojlantiradi
To'p bilan sakrash	to'p orqali oyoq muvozanatini his qilish.
Yulduzcha sakrash	qo'l va oyoq harakatlar koordinatsiyasini harakat ritmini rivojlantiradi
0 Gimnastika skameykasida 4 oyoqlab yurish	harakatlar kuchish tezligini oshiradi
1 Toshbaqa bo'lib sirpanish	qo'l va yelka kamarini mustahkamlaydi
2 Nafas olish mashqi	qon aylanish faoliyatini yaxshilaydi, tanada kislorod miqdorini oshiradi, nafas olish tezligini pasaytiradi, o'pkaning umumiy hajmini oshiradi.

XULOSALAR

1. Ilmiy adabiyotlarning nazariy tahlilida, imkoniyati cheklangan bolalarning harakat deprivatsiyasiga ta'sir qiluvchi sabablar aniqlandi:

- ota-onalar tomonidan bolaga nisbatan kuchli homiylik, uyatchanlik, bolaga e'tibor bermaslik, o'z farzandining nuqsonini yashirish, mehr va g'amxo'rlikning yetishmasligi, onaning bolani rad etishi

- tarbiyachilar tomonidan bolaning psixofizik, ijtimoiy va shaxsiy imkoniyatlarini, o'qituvchining avtoritar ta'sirini o'qitish jarayonida o'qituvchi tomonidan e'tiborsiz qoldirilishi; har doim ham bolaning yutuqlarini ob'ektiv baholash, sub'ektlarning harakat faoliyatiga bo'lgan ehtiyojni noto'g'ri baholash va noto'g'ri tushunish;

- bola tomonidan, mahrumlik hodisasiga munosabat sifatida, u o'z nuqsonini cheklash, begonalashish, qo'rquv, ishonchsizlik, qo'rquqlik, passivlik, o'zini izolyatsiya qilish, noto'g'ri xatti-harakatlar va tajovuzkorlik, balandlikdan qo'rqishda namoyon bo'ladi.

2. Tadqiqotlarimiz natijasida maktabga tayyorlov maktabgacha yoshdagi imkoniyati cheklangan bolalarning jismoniy tarbiyasi metodologiyasini qo'llash samaradorligi eksperimental ravishda tasdiqlangan.

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

Pedagogik eksperiment natijalari shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi imkoniyati cheklangan bolalar uchun biz ishlab chiqqan jismoniy tarbiya vositalari tarbiyalanuvchilarda ko'nikmalarini shakllantirishga va jismoniy fazilatlarini rivojlantirishga yordam beradi (yosh normasiga muvofiq).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. 1. Умнякова, Н.Л. Двигательная депривация детей дошкольного возраста как социально-педагогическая проблема / Г.Н. Пономарев, Н.Л. Умнякова // «Адаптивная физическая культура» - 2012.

2. Умнякова, Н.Л. Оценка двигательной активности дошкольников, имеющих нарушение слуха / Н.Л. Умнякова, А.И. Вегера, 27 Ю.В. Кочневская // Ученые записки университета имени П.Ф. Лесгафта.- 2013.

3. Rasulova M.Sh. Bolalarni maktabga psixologik tayorlash.

4. Usmonxodjayev T.S., Nuriddinova M.M. Maktabgacha jismoniy tarbiya va harakatli o'yinlar

5. Internet saytlari

1. Wikipedia.uz

2. kitob.uz

3. <http://txt.uz>

6. Мамуров Б.Б., Махмудов М.Х. Акмеологическая составляющая образовательной культуры учителя. философские и методологические. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=36679921>

7. В Mamurov, A Mamanazarov, K Abdullaev, I Davronov. Acmeological Approach to the Formation of Healthy Lifestyle Among University Students. III International Scientific Congress Society of Ambient ..., 2020. <https://www.atlantis-press.com/proceedings/isc-sai-20/125937241>

8. ББ Мамуров. Акмеологический подход к воспитанию молодого поколения в наследии предков. Педагогическое образование и наука, 2016. http://www.manpo.ru/manpo/publications/ped_obraz/n2016_03.pdf#page=147

9. Маъмуров Б.Б. Маманазаров А.Б. Условия развитие у будущих учителей навыков проектирования учебного процесса на основе акмеологического подхода. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=37269472>

10. Файзиев Я. З., Зиёев Д. Я. У. краткий исторический обзор развития физического воспитания и спорта //Academy. – 2020. – №. 9 (60).

11. Файзиев Я. З., Кузиева Ф. Эффективности использования национальных средств физического воспитания в учебном процессе //Вестник магистратуры. – 2020. – №. 3-1. – С. 95.

12. U. A. Fayzieva, M. T. Khikimova. Conditions of effectiveness of pedagogical communication. <https://mbukckslg.ru/en/usloviya-uspeshnogo-pedagogicheskogo-obshcheniya-ego-funkcii-organizaciya.html>

13. Fayziyeva Umida Asadovna Saidnazarova Gulshan Bolta qizi. “Ta’lim texnologiyalari” fanidan seminar mashg’ulotlarini bajarish bo’yicha metodik ko’rsatma. http://213.230.96.51:8090/files/ebooks/Iqtisodiyot/TALIM_TEXNOLOGIYALARI.pdf